

**TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI
SAMARALI BOSHQARISH ORQALI KREDIT PORTFELI
BARQARORLIGINI TA'MINLASH**

Annayev Vohab Turayevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

email: v_annayev@mail.ru

O'zbekiston Respublikasi bank tizimining samaradorligini oshirish iqtisodiyotning real sektorini kreditlashda banklarning faol ishtirok etishi bilan bog'liqdir, Biroq, mamlakatimiz tijorat banklari kreditlash faoliyatini olib borishda bir qancha qiyinchilik va muammolarga duch kelmoqda. Ayniqsa, bugungi kunda tijorat banklarini daromad keltiruvchi aktivlarining asosiy qismini tashkil etuvchi kreditlar orasida muammoli kreditlarning mavjudligi sezilarli bo'lmoqda.

Ayni paytda bizning mamlakatimizda ham ilmiy-nazariy hamda amaliyotchilar doiralarida muammoli kredit tushunchasi avvalgiga nisbatan ancha ko'proq qo'llanilmoqda va bahs munozaralarga sabab bo'lmoqda. Bu albatta, bejiz emas, chunki bugungi kunda respublikamiz bank tizimining kredit portfelida muammoli kreditlarning ulushi ancha yuqori foizni tashkil etmoqda.

Bugungi kunda ko'p davlatlar bank tizimida umidsiz qarzlarning ko'payishi muammosiga duch kelayotganligi tufayli banklarning muammoli kreditlari bilan ishlash tizimini takomilashtirish masalalari dolzarbligi yaqin kelajakda ortib boraveradi. Shuning uchun kreditorlar, shu bilan bir qatorda kreditni qaytarish bo'yicha qiyinchilikni boshdan kechirayotgan qarzdor-mijozning o'zi qay tariqa yo'l tutishi kerak?- degan savolning paydo bo'lishi bejiz emas.

Jahon tajribasi dalolat berishicha, shubhali va umidsiz qarzlilar bilan tasniflanuvchi aktivlarning sifati aksariyat hollarda bank sohasidagi barqarorlikning asosiy belgilaridan biri hisoblanadi, shuningdek, tizimni tashkil etuvchi asosiy banklari muammolari butun to'lov tizimining amal qilishiga va



aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchiga nisbatan sezilarli zarba bo'lishi mumkin.

Muammoli kreditlar odatda, qarz oluvchining kreditni to'lashi uchun yetarli pul mablag'lari bo'lmagan hollarda yuzaga keladi. Ba'zi hollarda ular mijozning hisobida mablag'lar bo'la turib kreditni to'lashni xohlamaganda ham yuzaga kelishi mumkin. Muammoli kreditlar yuzaga kelish ehtimoli paydo bo'lganda banklar ehtimoli yo'qotishlarga qarshi maxsus zahiralar shakllantiradilar. Zahiralarining shakllantirishi aktivlar o'z qiymatini yo'qotish gumoni tug'ilganligini, ya'ni aktivlarning qadrsizlanganligining ko'rsatilishidir. Ushbu zahiralar savdolanmaydigan aktivlar, ya'ni aktivlarning bozor bahosi bo'yicha qarzdorga talablar qo'yish amaliy jihatdarn umuman mumkin bo'lmagan holatlarda majburan shakllantiriladi.

Ssudalar portfel doirasida individual asosida baholanadi. Iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lmagan aniq bir ssuda qiymatining o'zgarishini baholashda portfelli yondashuv usuli qo'llaniladi. Misol uchun istemol krediti yoki kichik biznesni kreditlashda shu soha iqtisodiy konyukturasining yomonlashuvi bunday ssudalar holatining yomonlashuviga olib keladi. Bunday vaziyatda portfeldagi har bir aniq ssudalarning qaytish istiqbollarini baholab, ularni qaytarishga urinish juda qiyin va kam natijali ish hisoblanadi.

Ssudalar qiymatining yo'qolganligi, ya'ni muammoli ssudalarning kelib chiqishi ikki xil yo'l bilan: bevosita ssuda qiymatining kamayishi orqali (muvofiq summaning hisobdan chiqarilishi—charge off) yoki ehtimoliy zararlar uchun zahiralar tashkil etish yo'li orqali aks ettiriladi. Zaxirala ehtimoliy zararlarni, ya'ni aktivlar qadrsizlanishini tan olishni qat'iy belgilaydi. Natijada zaxiralash texnikasi aktivlar bahosining o'zgarishida eng egiluvchan pozitsiya hisoblanadi. Bundan tashqari, zaxiralash ssudalarning tarixiy qiymatining yo'qotilganligini tahlil qilishga imkon beradi.

Kreditlarni so'ndirish bilan bog'liq muammolar, odatda, tasodifan va birdan hosil bo'lib qolmaydi. Bu ma'lum vaqt davomida rivojlanib boradigan jarayondir. Bankning tajribali xodimi mijoz boshdan kechirishni boshlagan moliyaviy



qiyinchiliklar jarayonining paydo bo'lishidan darak beruvchi belgilarni o'z vaqtida aniqlashi va vaziyatni yaxshilash hamda bank manfaatlarini himoya qilish choralari ko'rishi mumkin.

Yuqoridagi barcha va boshqa qator sabablar u yoki bu darajada kreditlash jarayonini buzilishiga olib keladi hamda qarzdor bilan bir qatorda kreditor bankning ham barqarorligiga ziyon yetkazadi. O'z-o'zidan ma'lumki, oqibat natijalar birdaniga ko'rinmaydi. Ular sekin asta kapital aylanishiga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazadi boshlaydi. Ular qarzdor mijozning moliyaviy holatini, uinng ishlab chiqarish faoliyatini hamda kreditlashni tashkil etish jarayonini aks ettiruvchi o'ziga xos belgilar orqali namoyon bo'lishi mumkin. Ular quyidagilar haqida dalolat beradi:

- byudjetga to'lovlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikning mavjud bo'lishi;
- qarzdor korxonaning tayyor mahsulotiga talabning barqaror emasligi;
- moliyaviy va birlamchi xujjatlarning bankka topshirilish muddatlarining kechikishi;
- buxgalteriya hisobotida jiddiy kamchiliklarning mavjudligi
- qarzdorning moliyaviy xo'jalik faoliyatining haqiqatdagi ko'rsatkichlarini reja ko'rsatkichlaridan farqlanishi;
- mahsulot sotish rejasining bajarilmasligi;
- kredit ta'minoti sifatining rostligi;
- asosiy ishlab chiqarish fondlarining sotishdan tushgan tushumdan kreditni qaytarishning bir martalik manbasi sifatida foydalanish
- qarzdorning aylanma mablag'larining yetishmasligi;
- kreditni qaytishi hamda u bo'yicha foizlarning to'lanishini qisqa muddatli kechikishi;
- kreditni muddatini uzaytirish to'g'risida tez-tez bankka murojat qilishi;

Shuningdek, bank qarzdor mijozning moliya xo'jalik faoliyatida yuzaga keladigani qator holatlarga ham alohida e'tibor berishi lozim.

1-jadval.



**Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to'g'risida ma'lumot¹,
2026-yil 1-yanvar holatiga mlrd so'mda**

No	Bank nomi	Kreditlar	Muammoli kreditlar (NPL)	Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi
Jami		604 002	18 055	3,0%
Davlat ulushi mavjud banklar		404 469	12 834	3,2%
1	O'zmilliybank	105 382	2 989	2,8%
2	Agrobank	81 108	2 698	3,3%
3	O'zsanoatqurilishbank	64 936	1 642	2,5%
4	Asaka bank	41 464	1 502	3,6%
5	Xalq banki	33 600	1 032	3,1%
6	Biznesni rivojlantirish banki	24 552	1 110	4,5%
7	Mikrokreditbank	20 278	894	4,4%
8	Aloqa bank	18 810	477	2,5%
9	Turon bank	14 338	489	3,4%
Boshqa banklar		199 533	5 221	2,6%

2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra O'zbekiston tijorat banklari kredit portfeli tarkibida muammoli kreditlar (NPL) holati tahlil qilinganda, bank tizimida kreditlar sifatini baholash uchun muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, bank tizimi bo'yicha jami kreditlar hajmi 604 002 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lib, shundan 18 055 mlrd so'mi muammoli kreditlar hisobiga to'g'ri keladi. Natijada muammoli kreditlarning jami kreditlar hajmidagi ulushi 3,0 foizni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich xalqaro amaliyotda qabul qilingan

¹ <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/3326207/>

me'yorlar doirasida bo'lib, bank tizimida kreditlar sifati nisbatan barqaror ekanligini ko'rsatadi.

Davlat ulushi mavjud banklar kesimida tahlil qilinganda, mazkur banklar kredit portfelining umumiy hajmi 404 469 mlrd so'mni tashkil etgan. Shundan 12 834 mlrd so'mi muammoli kreditlar bo'lib, ularning ulushi 3,2 foizni tashkil etgan. Bu esa davlat ulushiga ega banklarda muammoli kreditlar ulushi bank tizimi o'rtacha ko'rsatkichiga nisbatan biroz yuqoriroq ekanligini ko'rsatadi.

Alohida banklar kesimida ko'rib chiqilganda, eng katta kredit portfeli O'zmilliybank hissasiga to'g'ri keladi. Ushbu bankda kreditlar hajmi 105 382 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lib, shundan 2 989 mlrd so'mi muammoli kreditlar hisoblanadi. Natijada NPL darajasi 2,8 foizni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich bank tizimi o'rtacha darajasidan past bo'lib, kreditlar sifati nisbatan barqaror ekanini anglatadi. Agrobankda kreditlar hajmi 81 108 mlrd so'm bo'lib, muammoli kreditlar 2 698 mlrd so'mni tashkil etgan. Ularning ulushi 3,3 foizni tashkil qilib, bank tizimi o'rtacha ko'rsatkichidan biroz yuqori hisoblanadi. O'zsanoatqurilishbankda esa kredit portfeli 64 936 mlrd so'mni tashkil etib, muammoli kreditlar 1 642 mlrd so'm yoki 2,5 foizni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich bankda kreditlar sifati nisbatan yaxshi ekanini ko'rsatadi. Asaka bankda muammoli kreditlar ulushi 3,6 foizni tashkil etgan bo'lib, bu davlat banklari orasida nisbatan yuqoriroq ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Xalq bankida mazkur ko'rsatkich 3,1 foizni tashkil etgan. Shuningdek, Biznesni rivojlantirish banki va Mikrocreditbankda muammoli kreditlar ulushi mos ravishda 4,5 va 4,4 foizni tashkil etgan bo'lib, bu banklar kesimida nisbatan yuqori darajadagi NPL ko'rsatkichi hisoblanadi. Aloqa bank va Turon bankda esa muammoli kreditlar ulushi mos ravishda 2,5 va 3,4 foizni tashkil etgan. Bu ko'rsatkichlar bank tizimi o'rtacha darajasiga yaqin yoki undan past hisoblanadi.

Boshqa banklar guruhi bo'yicha kreditlar hajmi 199 533 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lib, muammoli kreditlar 5 221 mlrd so'mga teng. Natijada ularda NPL darajasi 2,6 foizni tashkil etgan. Bu davlat ulushi mavjud banklarga nisbatan biroz past ko'rsatkich ekanligini ko'rsatadi.



Xulosa qilib aytganda, 2026-yil boshi holatiga ko'ra O'zbekiston bank tizimida muammoli kreditlar ulushi 3 foiz atrofida shakllangan bo'lib, bu kredit portfeli sifati barqarorligini ko'rsatadi. Shu bilan birga ayrim banklarda, xususan Biznesni rivojlantirish banki va Mikro kreditbankda NPL darajasi nisbatan yuqoriroq ekani kuzatilmoqda. Bu esa mazkur banklarda kredit risklarini boshqarishni yanada takomillashtirish, qarzdorlar to'lov qobiliyatini chuqurroq baholash va muammoli kreditlarni qayta tiklash mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Kredit muammoli deb tan olingan taqdirda, bank tomonidan uning qaytishini taminlash uchun kerakli chora-tadbirlar ko'rilishi lozim. Amaliyotda qaytmayotgan kreditlar muammosini yechishning to'rtta asosiy usuli qo'llaniladi.

- Garovni sotish;
- Aktivlarni sotish
- Qarzni restrukturizatsiya qilish
- Kreditni kengaytirish

U yoki bu usulni tanlashga biri qator omillar tasir ko'rsatadi.

Bu jarayonda qarzdorning quyidagi xususiyatlarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir:

- faoliyatning tashkiliy shakli;
- kredit shartnomasining amal qilish muddati;
- qarzdor qarzlarning aktivlarga nisbati;
- qarzdor kapitalining aktivlarga nisbati;
- aktivlarni joriy majburiyatlarga nisbati;
- sof daromadni sotish hajmiga nisbati;
- qaytarilmagan qarzlarning ulushi;
- qarzdorning joriy foiz to'lovlarini to'lay olish qobiliyati;
- kredit shartnomasini amal qilish davrida garov qiymatining o'zgarishi;
- kreditlarni qaytmaslik muammosini yechishning har bir usulini amalga oshirish harajatlarning qiymati;



Muammoli kreditlar mazmunini kengroq yoritib berish va ularni bartaraf etish bo'yicha banklar hamda maxsus tashkil etiladigan tuzilmalar faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida muammoli kreditlarni quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiq bo'ladi, deb hisobladik.

Muammoli kreditlar bilan ishlash faoliyatini tizimli ravishda olib borish maqsadida muammoli kreditlarni tasniflashni quyidagi asosiy yo'nalishlari asosida olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblanadi.

- muddati bo'yicha;
- sifati bo'yicha;
- ta'minoti bo'yicha;
- resurs manbai bo'yicha;
- kreditni berish to'g'risidagi qarorni qabul qiluvchi subyekti bo'yicha.

Muammoli kreditlarni yuqoridagi yo'nalishlari bo'yicha tasniflash ularni bartaraf etish uchun bajarilishi kerak bo'lgan ishlarni to'g'ri va samarali rejalashtirishga yordam beradi. Shu bilan bir qatorda, kreditni qutqarish bo'yicha chora-tadbirlar o'zining ijobiy natijasini bermasa, kredit bo'yicha undiruvni nimaga qaratish lozimligini aniqlab olish muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Shunday qilib, aksariyat bank inqirozlari rivojlanishining asosida banklarning kredit portfelida shubhali hamda umidsiz qarzarlikning o'sishi yotadi. Kredit portfelida muammoli kreditlarning mavjudligini aniqlagan har bir tijorat banki bunday kreditlar kelib chiqishining har bir holatini sinchiklab tahlil qilishi, shuningdek, kreditorning ham, qarzdorning ham manfaatlarini birdek hisobga olgan holda ularni bartaraf etish choralarini amalga oshirishi lozim. Amal qilmayotgan kreditlarni bartaraf etish bo'yicha u yoki bu usulni qo'llash haqida qarorni qabul qilishdan oldin, avvalambor, bunday aktivlarning paydo bo'lish sabablari bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish, shuningdek, bankda muammoli kreditlar mavjudligini ko'rsatuvchi asosiy belgilarni o'rganish zarurdir.